

OLIIY TA'LIM MUASSALARIDA MOLIVAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI

Islomov Bobur Zarifjon o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, Toshkent O'zbekiston.*

Email: boburislomov61@gmail.com

ORCID: 0009-0000-0554-9578

ANALYSIS OF THE CURRENT STATUS OF FINANCIAL RESOURCE MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Islomov Bobur Zarifjon ugli

*independent researcher of
Tashkent State University of Economics,
Tashkent, Uzbekistan*

E mail: boburislomov61@gmail.com

ORCID: 0009-0000-0554-9578

JEL classification: G50 H6

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi moliyaviy ta'minotining joriy holati kompleks tahlil qilinib, mavjud resurslarning taqsimoti, samaradorlik darajasi va ularni boshqarish mexanizmlarining institutsional jihatlari chuqur o'rganilgan. Bugungi kunda mamlakatda faoliyat yuritayotgan 201 ta oliy ta'lim muassasasining turlari va son jihatidan kengayib borayotgani, shuningdek, talabalar qabul kvotalarining ortib borishi oliy ta'limning moliyaviy yuklamasi oshayotganini ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda, ta'lim tizimini isloh qilish samaradorligi bevosita moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liqdir.

Maqolada davlat budjetining ijtimoiy sohalarga, xususan ta'lim sohasiga ajratilayotgan mablag'lari 2019–2024 yillar davomida statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, budjet xarajatlarida ta'lim ulushining mutanosib kamayish tendensiyasi aniqlanadi. Xususan, 2024 yilda ijtimoiy sohaga ajratilgan mablag'larning jami

budjetdagi ulushi 2019 yilga nisbatan 5,8 foizga kamaygani, ta'lim xarajatlarining esa o'sha davrda 6 foizga qisqargani qayd etilgan. Mazkur tendensiyaning sabablari sifatida pandemiyadan keyingi sog'liqni saqlash xarajatlarining ortishi, davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish va ta'limning davlat-xususiy sheriklik asosida kengayib borishi ko'rsatilgan.

Maqolada oliy ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan davlat mablag'larining hajmiy ko'rsatkichlari o'sayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy budjetdagi nisbiy ulushi va markazlashgan investitsiyalar tarkibidagi ulushi yetarli darajada ortmayotgani aniqlangan. Misol uchun, 2024 yilda oliy ta'lim uchun ajratilgan investitsiya mablag'lari hajmi 2020 yilga nisbatan 10 barobarga oshgan bo'lsa-da, markazlashgan investitsiyalardagi ulushi atigi 3,7 foizga ko'tarilgan.

Bundan tashqari, maqolada xalqaro tajriba asosida O'zbekistonning ta'lim xarajatlari ko'rsatkichlari AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi

davlatlar bilan solishtirilib, O'zbekiston budjetidagi ta'limga ajratiladigan ulush yuqori bo'lsa-da, oliy ta'lim ulushi bo'yicha past darajada ekani tahlil etilgan.

Ushbu tahlillar asosida maqola muallifi oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, ko'p manbali moliyalashtirish tizimini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rag'batlantirish, raqamli boshqaruv tizimlarini keng joriy etish hamda budjet xarajatlarining natijadorligini baholovchi indikatorlar asosida moliyaviy resurslarni taqsimlashni taklif etadi.

Maqola yakunida barqaror moliyalashtirish modeli va innovatsion moliyaviy boshqaruv tamoyillariga asoslangan kontseptual yondashuv ishlab chiqilgan bo'lib, bu model oliy ta'lim muassasalarining barqaror va raqobatbardosh moliyaviy faoliyat yuritishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Abstract: This scholarly article presents a comprehensive analysis of the current state of financial provision in the higher education system of the Republic of Uzbekistan, with an in-depth study of the allocation, efficiency, and institutional aspects of managing existing resources. The increasing number and diversification of the 201 higher education institutions operating in the country today, along with the growth in student admission quotas, indicate a rising financial burden on the higher education sector. Under such conditions, the effectiveness of educational reforms is directly linked to the adequacy of financial resource provision.

The article examines statistical data from 2019 to 2024 regarding public budget allocations to social sectors, particularly education, revealing a relative downward trend in the share of education expenditures within total budget spending. Specifically, in

2024, the share of allocations to the social sector in the total state budget decreased by 5.8 percentage points compared to 2019, while education expenditures declined by 6 percentage points. The main reasons behind this trend include increased healthcare spending in the post-pandemic period, growing public debt servicing costs, and the expansion of public-private partnerships in the education sector.

Although the absolute volume of public funds allocated to higher education has increased, the article finds that their relative share in the overall budget and within centralized investment expenditures has not risen sufficiently. For example, while investment funds allocated to higher education in 2024 increased tenfold compared to 2020, their share within centralized investments grew by only 3.7 percentage points.

Furthermore, based on international comparisons, the article analyzes Uzbekistan's education expenditure indicators in relation to countries such as the USA, Germany, South Korea, Japan, and others. While the overall share of education in the state budget is relatively high in Uzbekistan, the share allocated specifically to higher education remains comparatively low.

Drawing from these findings, the author proposes several policy recommendations, including strengthening the financial autonomy of higher education institutions, implementing a diversified funding system, promoting public-private partnerships, expanding the use of digital financial management systems, and allocating resources based on performance-based budgeting indicators.

In conclusion, the article introduces a conceptual approach based on a sustainable financing model and innovative financial

governance principles aimed at ensuring the stable and competitive financial operation of higher education institutions.

Kalit soʻzlar: *Oliy taʼlim, moliyaviy taʼminot, davlat budjeti, ijtimoiy xarajatlari, taʼlim xarajatlari, moliyaviy resurslar, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy mustaqillik, investitsiyalar, taʼlim islohotlari raqamli boshqaruv,*

Key words: *Higher education, financial provision, state budget, social expenditures, education funding, financial resources, public-private partnership, financial autonomy, investments, education reforms, digital governance, performance-based budgeting*

Kirish. Zamonaviy dunyoda iqtisodiyot va jamiyat rivojining muhim manbalaridan biri, shubhasiz, qiymati doimiy ravishda oʻsib boradigan taʼlim tizimidir. Ushbu holat taʼlim tizimining, avvalambor, oliy taʼlimning milliy innovatsion tizimga kirishiga bogʻliq. Taʼlimga yoʻnaltirilgan investitsiyalar, agar ular samarali boʻlsa, innovatsion milliy iqtisodiyotning asosi boʻlgan innovatsion korxonalarining paydo boʻlishi uchun sharoit yaratadi. Dunyoning aksariyat mamlakatlarida taʼlim sifatini va uni olish imkoniyatlarini oshirish nafaqat mazkur sohaga xarajatlarni oshirishni, balki mavjud resurslardan samarali foydalanishni ham talab qiladi. "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga aʼzo davlatlarda oliy taʼlim tizimi xarajatlari YaIMning oʻrtacha 1,5 foizini tashkil etadi. Bunda xususiy sektorning ulushi YaIMning 1 foizini tashkil etsa, davlatning ulushi YaIMning 0,5 foizini tashkil etadi. Jumladan, 2015 yilda oliy taʼlim tizimini moliyalashtirishda davlatning ulushi Avstraliya, Norvegiya, Finlyandiya mamlakatlarida yuqori boʻlib, ushbu sohaga xarajatlar YaIMning 1,5 foizidan koʻprogʻini tashkil etgan. Oliy taʼlimni moliyalashtirishda xususiy sektorning ulushi

katta boʻlgan mamlakatlarga AQSh, Buyuk Britaniya, Chili mamlakatlarini kiritish mumkin. Ushbu mamlakatlarda oliy taʼlim xarajatlarida xususiy sektorning ulushi YaIMning oʻrtacha 1,2-1,7 foizini tashkil etgan". Mamlakatimizdagi aksariyat oliy taʼlim muassasalari budjet muassasalari hisoblanadi, biroq budjet mablagʻlari bu xalqning mablagʻi ekanligini hisobga olib, ulardan samarali va oqilona foydalanish hozirgi kundagi asosiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Materia va metod. Oliy taʼlim muassasalarini samarali moliyalashtirish, moliyaviy resurslarni boshqarish, oliy taʼlim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini va barqarorligini oshirish, moliyalashtirishning samarali tizimini ishlab chiqish, budjetdan tashqari mablagʻlarni jalb etishni kengaytirish va ulardan samarali foydalanish masalalari xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, risolalar va maqolalarda oʻz aksini topgan.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan N.V.Long, L.Yang, B.McCall, U.Teichler, B.Poul, S.Marginson, M.Lung, I.Moldovan, N.L.Alexandra, J.Erina, I.Erins, A.Goksu,

G.Goksu, I.V. Abankina, V.A. Vinarik, L.M. Filatova, G.A.Lukichev, V.M.Filippov, N.K.Nasibova, A.A.Adambekova, N.A.Amankeldi, S.A.Belyakova, A.S.Zaborovskaya, T.L.Klyachko, I.B.Korolev, N.B.Ozerova, Ye.A.Polushkina² va boshqalar tomonidan oliy taʼlim muassasalarini moliyalashtirish tizimi yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.Gulyamov, N.Jumaev, M.Saidov, D.Nabiev, D.Raxmonov, X.Rejapov, D.Pulatov, Z.Srojiddinova, B.Nurmuxammedova, Sh.Rasulov, D.Rustamova, K.Ibragimov, E.Odilov, A.Maxmudovlar³ ishlarida taʼlim tizimi,

xususan oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish, ularning moliyaviy resurslarini boshqarish masalalari yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda mamlakatimizda 201 ta oliy ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ulardan Universitetlar 117 ta, Institutlar 43 ta, Akademiyalar 5 ta, Filiallar 35 ta, Konservatoriya 1 ta, chet el OTM filiallari 27 ta, Nodavlat oliy ta'lim muassasalari 70 tani tashkil etadi⁴. Shunga munosib ravishda oliy ta'lim muassasalariga talabalarning qabul kvotasi ham mutanosib ravishda oshirildi.

Hozirgi innovatsion texnologiyalar sharoitida mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri mamlakatda o'rnatilgan

ta'lim tizimi ekanligi hech kimda shubha uyg'otmasligi tabiiydir. Shu bilan birga mamlakatda ta'lim tizimini isloh qilish va yanada rivojlantirish bevosita mazkur sohani moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga ham bevosita bog'liqdir. Shularni hisobga olgan holda, davlatimiz o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab ijtimoiy soha va aholini qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor berib kelmoqda. Har yili ijtimoiy sohaga davlat budjetidan ajratiladigan mablag'larning ulushi jami xarajatlarning o'rtacha 42-50 foizini tashkil etadi. Ijtimoiy xarajatlar tarkibida eng katta ulushni esa ta'lim xarajatlari tashkil etadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijtimoiy soha xarajatlari (mlrd. so'm)¹

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1	Davlat budjetining jami xarajatlari	107118,4	131104,5	165879	236 692,0	257 734	312 921
1.1	Ijtimoiy xarajatlar	57822,3	66018,1	86622	117 691,9	129 891	151 504
	<i>Jami budjet xarajatlari tarkibidagi ulushi, foizda</i>	54	50,4	52,1	49,7	50,4	48,2
1.2	Ta'lim xarajatlari	28394,3	30047,6	34590,3	50 271,3	58 372	69 076
	<i>jami ijtimoiy soha xarajatlari tarkibidagi ulushi, foizda</i>	49,1	45,5	39,9	42,7	45	46
	<i>Jami budjet xarajatlari tarkibidagi</i>	26,5	22,9	20,9	21,2	22,6	22,1

¹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

	ulushi, foizda						
--	----------------	--	--	--	--	--	--

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, 2019 yilda ijtimoiy soha xarajatlari jami budjet xarajatlarining 54 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023 yilda 50,4 foizni tashkil etgan. 2024 yilga kelib esa ijtimoiy soha xarajatlari budjet xarajatlarining 48,2 foizini tashkil etmoqda. Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan guvohi bo'lishimiz mumkinki, davlat budjetidan ijtimoiy sohaga ajratilayotgan mablag'lar hajm jihatdan o'sishiga qaramay, jami budjet xarajatlari tarkibida ularning ulushi 2024 yilda 2019 yilga qaraganda 5,8 foizga kamaygan.

Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ta'lim xarajatlari eng katta ulushga ega bo'lib, 2019 yilda ijtimoiy soha xarajatlarining 49,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 45 foizni tashkil etgan. 2024 yilda esa 46 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Davlat budjeti jami xarajatlari tarkibidagi ulushi esa mos ravishda 2019 yilda 26,5 va 2023 yilda 22,6 foizni tashkil etgan holda, 2024 yilda 22,1 foizni tashkil etganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Mamlakatimizda ta'lim tizimini budjetdan moliyalashtirish hajmi 2024 yilda 2019 yilga qaraganda qariyb 3 barobarga ortishi rejalashtirilayotganligiga qaramay, uning jami budjet xarajatlari tarkibidagi ulushi deyarli 6 foizga kamaygan. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida so'nggi yillarda mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik asosidagi hamda xususiy ta'lim muassasalarining ko'payganligi e'tirof etish mumkin. Shuningdek, so'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab o'zining ham iqtisodiy, ham ijtimoiy zararini ko'rsatayotgan pandemiya tufayli ko'plab davlatlarning asosiy

xarajatlari sog'liqni saqlash sohasiga sarflanmoqda. Bunday holatni mamlakatimizda ham yuzaga kelishi hamda davlat budjeti tarkibida davlat qarzlarini qaytarish bo'yicha xarajatlarning ham ortishi davlat budjeti xarajatlari tarkibida ta'lim xarajatlarining ulushini past darajada qolishiga sabab bo'lmoqda.

Ta'lim xarajatlari tarkibida hajm jihatdan eng katta ulushni umumta'lim muassasalarini moliyalashtirish uchun sarflangan xarajatlar tashkil etsa, keyingi o'rinlarda mos ravishda maktabgacha ta'lim va oliy ta'lim xarajatlari turadi. Quyidagi rasmda davlat budjetidan oliy ta'limni moliyalashtirishga ajratilgan mablag'larning o'zgarish dinamikasini ko'rishimiz mumkin (1-rasmga qarang).


Quyidagi 1-rasm ma'lumotlaridan shuni guvohi bo'lishimiz mumkinki, davlat budjetidan oliy ta'lim muassasalariga 2016-2021 yillarda ajratilayotgan mablag'lar hajmi o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, yildan yilga oshib bormoqda. Xususan, 2016 yilda davlat budjetidan oliy ta'limni moliyalashtirishga 637,8 mlrd. so'm ajratilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib, bu ko'rsatkich 2266,8mlrd. so'mni tashkil etgan, ya'ni 2020 yilda 2016 yilga qaraganda 3,6 barobar ko'p mablag' ajratilgan. Oliy ta'lim xarajatlarining jami ta'lim xarajatlari tarkibidagi ulushi ham mos ravishda 2016 yildagi 4,6 foizidan 2020 yilda 7,5 foizga oshganini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Quyidagi 1-rasm ma'lumotlarini ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar bilan solishtirish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, mamlakatimizda ta'lim sohasiga budjetdan ajratilayotgan mablag'lar jami budjet xarajatlarining o'rtacha 29-30

foizini, jumladan 2024 yilda 28,7 foizini tashkil etsa, AQShda bu ko'rsatkich 12,8 foizni, Janubiy Koreyada 15 foizni, Rossiyada 12,2 foizni, Germaniyada 10,5

foizni, Yaponiyada 9,1 foiz va Italiyada 8,3 foizni tashkil etganini guvohi bo'lishimiz mumkin.


Shuningdek ushbu rasmda ko'rishimiz mumkinki, barcha rivojlangan mamlakatlarda Oliy ta'lim xarajatlari kam fozilarni tashkil etgan, ya'ni o'rtacha 3-3,5 foiz.



1-rasm Davlat budjeti xarajatlari tarkibida ta'lim hamda oliy ta'lim xarajatlarining ulushi, foizda²

Ushbu quyidagi rasm ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, oliy ta'lim muassasalariga davlat investitsiyalarining miqdori o'sish tendentsiyasiga ega bo'lib, 2024 yilda 2019 yilga qaraganda qariyb 10 barobarga oshgan. 2019-2022 yillarda o'rtacha 1,3-1,5 barobar

ko'rsatkich sezilarli darajada 3,4 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin. Biroq agar jami markazlashgan davlat investitsiyalari tarkibida oliy ta'limga yo'naltirilgan mablag'lar ulushiga e'tibor beradigan bo'lsak boshqacha holatga guvoh bo'lishimiz mumkin(3-rasm).



oshgan bo'lsa, 2022 yilda esa ushbu


2-rasm. Markazlashgan davlat investitsiyalari tarkibida oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi³

² Образование в цифрах: 2019 : краткий статистический сборник / Н.В. Бондаренко, Л. М. Гохберг, Н. В. Ковалева и др.; Нац. исслед. ун-т "Высшая школа экономики". – М.: НИУ ВШЭ, 2019. – 96 с hamda iqtisod va moliya vazirligining rasmi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

³ www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Ushbu rasm ma'lumotlaridan guvohi bo'lishimiz mumkinki, 2024 yilda oliy ta'limga yo'naltirilgan davlat investitsiyalarining hajmi 2020 yilga qaraganda 10 barobarga oshganligiga qaramay, jami markazlashgan investitsiyalarni moliyalashtirish xarajatlari tarkibidagi ulushi hihatdan 2020 yilga

ko'rishimiz mumkin, xususan, 2024 yilda oldingi 2020 yilga qaraganda 3,7foizga oshganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Umuman olganda 2020 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida markazlashgan davlat investitsiyalari tarkibida oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi o'sish tenditsiyasiga



qaraganda kam foizlarda oshganligini ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

3-rasm. Markazlashgan davlat investitsiyalari tarkibida oliy ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi⁴

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalari soni va turi yildan-yilga ortib borayotgani, zamonaviy ta'lim texnologiyalari joriy etilayotgani va xalqaro standartlarga mos malakali mutaxassislar tayyorlash zarurati davlatning ushbu sohaga bo'lgan strategik e'tiborini yana-da oshirishni taqozo qilmoqda. Mazkur maqolada o'tkazilgan empirik va statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimini samarali rivojlantirish bevosita ularni moliyaviy resurslar bilan barqaror ta'minlashga bog'liqdir.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, davlat budjetidan ajratilayotgan mablag'lar son jihatdan sezilarli darajada o'sayotgan bo'lsa-da, ularning umumiy budjet xarajatlari tarkibidagi ulushi yil sayin kamayib

bormoqda. Xususan, 2019–2024 yillar oralig'ida ijtimoiy xarajatlar jami budjet xarajatlardagi ulushi 5,8 foizga, ta'lim xarajatlari ulushi esa 4,4 foizga kamaygan. Bu esa ta'lim sohasining, xususan oliy ta'lim segmentining boshqa ustuvor yo'nalishlar – sog'liqni saqlash, mudofaa, qarzlarini qoplash kabi yo'nalishlar bilan raqobatga kirayotganidan dalolat beradi.

Oliy ta'lim muassasalariga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar hajmi 2020–2024 yillar oralig'ida qariyb 10 barobarga oshgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkichning markazlashgan investitsiyalar tarkibidagi nisbiy ulushi sust sur'atlarda o'sayotgani, ya'ni atigi 3,7 foizga ortgani, moliyaviy siyosatning strukturaviy muvozanatsizligini ko'rsatmoqda. Bundan

⁴ www.imv.uz - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

tashqari, xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil O'zbekistonda ta'limga umumiy budjetdan ajratiladigan mablag'lar yuqori ko'rsatkichlarda bo'lishiga qaramay, aynan oliy ta'limga yo'naltirilgan xarajatlar darajasi nisbatan pastligini namoyon etdi. Bu esa mamlakatimizda oliy ta'lim sektorining o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishiga moliyaviy cheklovlar mavjudligini bildiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi muhim xulosalarga kelindi:

1. **Oliy ta'lim muassasalari moliyaviy barqarorligining asosiy omili** — ko'p manbali moliyalashtirish tizimini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini keng joriy qilish va ta'lim xizmatlari orqali tushumlar hajmini oshirishdir.

2. **Budjet xarajatlari samaradorligini oshirish** uchun ta'limga ajratilayotgan mablag'larning natijadorligini baholovchi indikatorlar asosida resurslarni taqsimlash tizimini ishlab chiqish zarur.

3. **Davlat investitsiyalarining nisbiy ulushini oshirish** orqali oliy ta'lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ilmiy

tadqiqot bazasini kengaytirish va raqamli texnologiyalar asosida ta'lim muhitini takomillashtirish talab etiladi.

4. **Xalqaro moliyaviy institutlar, grantlar va donorlar bilan hamkorlikni kengaytirish** orqali innovatsion va ilmiy loyihalarni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiyalash lozim.

5. **Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kengaytirish** hamda ularning o'z resurslarini samarali boshqarish imkoniyatlarini kuchaytirishga yo'naltirilgan institutsional islohotlarni amalga oshirish dolzarb masaladir.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim tizimining joriy moliyaviy ta'minot holati tizimli yondashuv va zamonaviy boshqaruv mexanizmlari asosida optimallashtirilishi zarur. Bunda davlatning roli nafaqat moliyaviy donor sifatida, balki ta'limning raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan strategik boshqaruv subyekti sifatida yana-da kuchaytirilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni, 2020 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Davlat budjeti hisobotlari, 2019–2024 yillar.
3. UNESCO. Global Education Monitoring Report, 2023.
4. World Bank. Financing Higher Education: Challenges and Opportunities, 2022.
5. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators.
6. Sultonov, A., & Karimova, N. (2021). "Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash: davlat-xususiy sheriklikning roli". *Iqtisodiy Tadqiqotlar*, 15(3), 45–60.
7. Mirzaev, B. (2022). "Ta'lim islohotlarining moliyaviy ta'minoti va raqamli boshqaruv tizimlari". *O'zbekiston Ta'lim Jurnali*, 7(1), 23–38.
8. Abdullayev, T. (2020). "Davlat budjetining ijtimoiy xarajatlari va ta'lim sohasiga ajratiladigan mablag'lar tahlili". *Moliya va Iqtisodiyot*, 12(4), 67–78.
9. OECD (2021). Public-Private Partnerships in Education: Policies and Practices.



10. World Economic Forum. (2023). Digital Transformation in Education: A Global Perspective.
11. Tashkent State University. Oliy ta'lim va innovatsion moliyaviy boshqaruv. O'quv-uslubiy qo'llanma, 2023.
12. IMF. Fiscal Policy and Education Spending: Trends and Challenges, 2022.